

**MANAGEMENT AND ECONOMICS
SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL**

**MENEJMENT VA IQTISODIYOT
ILMIY-TADQIQOT JURNALI**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ
ЖУРНАЛ МЕНЕДЖМЕНТА И ЭКОНОМИКИ**



MUNDARIJA

Шарипов К.А., Хотамов И.С.	Основные направления развития «зелёной» энергетики в Узбекистане.....	2
Хашимов Б.А., Ахмедов Х.Д., Махкамова С.Г.	Совершенствование учета поступления и выбытия нематериальных активов по договору обмена в нефтегазовой отрасли Республики Узбекистан.....	10
Narbayev Sh.K., Sadullayev S.N.	Dehqon xo'jaliklarida yerdan foydalanish samaradorligining o'zgarish tendensiyalari.....	20
Nosirova N.J.	Reklama – marketing kommunikatsiyasining biznesga ta'siri.....	26
Samadov A.N.	Innovative Service Marketing: Russian Experience.....	34
Temirov A.A.	Prospects for digitalization of corporate governance in corporate structures of the Republic of Uzbekistan.....	42
Sobirov A.A.	Sanoat klasterlari – sanoat salohiyatini oshirishning strategik yo'nalishi sifatida.....	51
Rajabov N.R., Adilova M.T., Xasanova N.N.	Mintaqalar iqtisodiy-ekologik barqaror rivojlanishining tashqi va ichki tahdidlari.....	60
Azlarova M.A.	Waste management activities and methods.....	71
Кадирова И.Б.	Анализ состояния и тенденций развития свободных экономических зон в Республике Узбекистан.....	74
Fozilova F.K.	Importance of children's financial education and behavior	78
Фарходова Ш.Ш.	Новые тенденции развития современного менеджмента в цифровой экономике: проблемы и решения.....	83
Ostanaqulov X.M.	Sun'iy intellekt va avtomatlashtirishning iqtisodiy ta'siri: O'zbekiston misolida.....	87
Karrieva Y.K.	Ways of development of innovative logistics in Uzbekistan	95
Masharipova Sh.A.	Transport-logistika klasterlari faoliyati bo'yicha xorij tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.....	100
Xudayberdiyev O'.E	Mamlakatda qoramolchilik mahsulotlari marketingini rivojlantirish yo'nalishlari.....	111
Каримов В.А.	Қишлоқ хўжалиги маҳсулот ишлаб чиқаришида қишлоқ хўжалиги техникаларининг аҳамияти	116
Qahhorov Sh.G'.	O'zbekiston tijorat banklarining "muammoli kreditlari"	122
Муратов Ф.Д.	Конституция: ижтимоий адолатнинг кафолати.....	125
Karimova S. T.	Konstitutsiya – ishonchli kelajak va farovon hayot Qomusi	131
Arziqulov E.A.	Konstitutsiya farovon taraqqiyotimiz garovi.....	137
Azim Davron.	Jadid matbuoti: Ismoil Gasprali va Hamza Hakimzoda.....	142
Baxanurov O. O.	Digital Currencies and Central Banks: An Analysis from a National Economic Security Perspective	148
Akbarov Sh.X.	Raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali korxonalarda HR menejment tizimini takomillashtirish ("O'zbekiston temir yo'llar" AJ misoolida)	155
Kodirov S.Q.	Logistika va Iqtisodiyot	160

MINTAQALAR IQTISODIY-EKOLOGIK BARQAROR RIVOJLANISHINING TASHQI VA ICHKI TAHDIDLARI

Nazirjon Razzoqovich Rajabov,

TMII Iqtisodiyot kafedrasi mudiri PhD, Dotsent

Adilova Marg'uba Tursunalievna

TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasi dotsenti v.b., PhD.

Xasanova Nasiba Nazar qizi

TMII Iqtisodiyot kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Maqolada hududlarning ekologik-iqtisodiy xususiyatlari va uning barqaror rivojlanish bilan bog'liqligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va murakkab ekologik vaziyatli hududlarni barqaror rivojlantirish strategiyasi va mintaqalar rivojlanishini iqtisodiy barqarorligini baholashga uslubiy yondashuvlari tizimlashtirilgan. Mintaqalar iqtisodiy-ekologik rivojlanishining hozirgi holati va uning hudud iqtisodiy barqarorligiga ta'siri, mintaqalarning iqtisodiy-ekologik barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: mintaq, hudud, barqaror rivojlanish, Iqlim o'zgarishi, tashqi va ichki omillar.

Abstract. The article systematizes the ecological and economic characteristics of regions and their relationship with sustainable development, the strategy of rational use of natural resources and sustainable development of regions with complex ecological situations, and methodological approaches to assessing the economic sustainability of regional development. The current state of economic and ecological development of regions and its impact on the economic stability of the region, external and internal factors affecting the sustainable economic and ecological development of regions are analyzed.

Keywords: region, territory, sustainable development, Climate change, external and internal factors.

Аннотация. В статье систематизированы эколого-экономические характеристики регионов и их связь с устойчивым развитием, рациональным использованием природных ресурсов и стратегией устойчивого развития регионов со сложной экологической ситуацией, а также методические подходы к оценке экономической устойчивости развития регионов. . Анализируются современное состояние экономико-экологического развития регионов и его влияние на экономическую стабильность региона, внешние и внутренние факторы, влияющие на экономико-экологическое устойчивое развитие регионов.

Ключевые слова: регион, территория, устойчивое развитие, изменение климата, внешние и внутренние факторы.

Kirish. Jahonda global iqlim va ekologik o'zgarishlar sharoitida mintaqalarni barqaror rivojlantirishning iqtisodiy-ekologik jihatlariga bo'lgan e'tibor kuchayib bormoqda. "Keyingi o'ttiz yil mobaynida BMT har yili 200 dan ortiq davlatni global iqlim sammiti

– Conference of the Parties (COP27)ga yig'adi. Bu konferensiyaning asosiy maqsadi yerning iqlim tizimiga xavfli antropogen ta'sirning oldini olishga bag'ishlangan. 2022-yilda Misr Arab Respublikasining Sharm al-Shayx

shahrida bo'lib o'tgan navbatdagi sammitda "Yo'qotish va zarar" muammosi (rivojlangan mamlakatlar tomonidan iqlim inqirozidan eng ko'p zarar ko'rgan, inqirozga eng kam hissa qo'shgan eng qashshoq mamlakatlarga tovon to'lash) qabul qilindi. Bunda Xalqaro metereologiya tashkiloti ekspertlarini tavsiyasi bo'yicha yer sharida havo temperaturasini 1,5 gradusdan oshirmaslikka va uning salbiy oqibatlariga baho berilmoqda"[23]. Bu esa mamlakatlar va ular mintaqalarini barqaror rivojlantirishning iqtisodiy-ekologik jihatlarini tadqiq etishning dolzarbligini oshirmoqda.

Global iqlim o'zgarishlariga chidamli iqtisodiyotni rivojlantirish, tarmoqlar-dagi ishlab chiqarish zanjirlarida zaif bo'g'inlarni aniqlash, zamonaviy texnologiyalarga o'tish va qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar miqdorini kamaytirish, uglerod soliqlarini joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlariga "yashil texnologiyalar"ni joriy etishda turli imtiyozlar belgilash, mintaqani barqaror rivojlantirishni cheklovchi ekologik omillar ta'sirini hisobga olish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

2019-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasida "mamlakatni uzoq muddatli istiqbolda jahonda taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga kirishning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan, takror ishlab chiqarilmaydigan tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish vazifalarini hal etish"[24] ko'zda tutilgan. Atrof-muhit sohasida davlat

siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, ularning amalga oshirilishi esa kelajak avlodlarning manfaatlari yo'lida mamlakatni barqaror rivojlantirishni ta'minlash imkonini beradi. Jamiyatning jadal sur'atlarda sanoatlashuvi mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishi bilan bir qatorda ko'plab ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Mamlakat va uning hududlarida iqtisodiy salohiyatni oshirish, hududlarda samarali iqtisodiy-ekologik tizimni shakllantirish, ishlab chiqarishni turli yo'nalishlarini rivojlantirish orqali hududlar ekologik xavfsizligini ta'minlash yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. So'nggi paytlarda mintaqalarni tahlil qilishda tizimli yondashuvdan foydalanish faollashdi, bu birinchi navbatda, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik tizimlar sifatida o'rganishda namoyon bo'ladi. Respublika mintaqalarini iqtisodiy-ekologik jihatlarini hisobga olgan holda hududiy barqaror rivojlantirish ahamiyati oshib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasida kelgusi yil uchun rivojlanishning asosiy 6 yo'nalishini belgilab berdi, unda asosiy "...to'rtinchi yo'nalish — ekologiya, ayniqsa, suv masalalari global muammoga aylanib borayotgani bilan bog'liq" deb ta'kidlab o'tdilar[25]. Shu jihatdan, mamlakat va uning hududlarida iqtisodiy salohiyatni oshirish, hududlarda samarali iqtisodiy-ekologik tizimni shakllantirish, ishlab chiqarishning turli yo'nalishlarini rivoj-

lantirish orqali hududlar ekologik xavfsizligini ta'minlagan holda barqaror rivojlantirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Hudud iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi zamonaviy iqtisodiyotning fundamental kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Bu holatning tan olinganligi, anglab yetilganligi va ilmiy sharhlashga bo'lgan intilish mintaqashunoslik yo'nalishining iqtisodiy fanlar tizimi doirasida mustaqil ajralib chiqishiga sabab bo'ldi (I.Tyunen, A.Veber, V.Kristaller hamda boshqa olimlarning asarlaridan boshlab mintaqa to'g'risida iqtisodiy kategoriya sifatidagi nazariy-metodologik tasavvurlarning shakllanishiga yordami berdi [Granberg.A.,2000]).

Hozirgi kunda mavjud bo'lgan nazariy yondashuv va modellarni (bular A.Veberning transport xarajatlarini minimallashtirish nazariyasi, G.Xotellinning fazoviy raqobat modellarning tahlili, V.Kristallerning mintaqaviy tuzilmalar nazariyasi, U.Izardning mintaqalararo modellar nazariyasi va b.) batafsil tahlil qilgan holda, bozor sharoitlariga xos bo'lgan taraflariga e'tibor beramiz.

A.G.Granberg ning fikricha, "mintaqa" deganda boshqa hududlardan o'zining bir qator belgilari bilan farq qiladigan hamda o'zining tarkibiy elementlarining birmuncha zichligi, o'zaro bog'liqligi bilan boshqa hududlardan ajralib turadigan muayyan hududni tushunadi.

V.Kistanovning fikricha, "mintaqa" deganda integratsion kuchlar va jarayonlar o'zaro birlashib ketgan holda

tashkillashtirilgan, muayyan toksonomik darajada takrorlanish rejimida amal qiladigan hududiy cheklangan iqtisodiy butunlikni tushunish zarurligi ta'kidlangan [Кистанов В., Копылов Н. 2002].

Bunday yaxlitlik bir tomondan xo'jalik yurituvchi subyektlarning mintaq "ichida"gi o'zaro munosabatlarini, ikkinchi tomondan tegishli milliy xo'jalik komplekslari doirasida ham, bir butun global iqtisodiyot doirasida ham ko'p jihatli mintaqalararo munosabatlarni keltirib chiqaradi. Bularning hammasi hududiy raqobatchilik jarayonini paydo qiladi, mintaqalarning raqobatchilik muhitidagi rivojlanish imkoniyatlarini va ularning raqobatbardoshlik darajasini belgilaydi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi – kelajak avlod ehtiyojlarini inobatga olgan tarzda hozirgi zamon kishilik jamiyatining o'zaro uzviy bog'langan ekologik xavfsiz, iqtisodiy ta'minlangan, ijtimoiy muhofazalangan va institutsional birlashgan hayot tarzini shakllantirishni o'z ichiga olgan g'oyalar tizimidir [Nigmatov A. 2015].

Yangi rivojlanish modelini shakllanish jarayonida barqaror rivojlanish paradigmasining evolyutsiyasi "yashil" iqtisodiyot konsepsiyasi yaratilishiga olib keldi va jamiyat tabiat tizimlari bilan birga ham ohang rivojlanishi e'tirof etildi [Перелет Р. А.]. "Global yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi BMT-ning atrof-muhit dasturi (2009-yil) doirasida taklif etildi. [26]

Uning asosiy mohiyati rivojlanishni kam uglerodli iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirish va rag'

batlantirishga, ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga va ekologik talablarga javob beradigan transport vositalarini yaratishga va qo'llashga, energiya samaradorligini ta'minlashga va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq masalalarni hal etishga qaratilgan [Isadjanov A.A. 2020].

Barqaror taraqqiyot muammosi ikki asosiy yo'nalishda rivojlanmoqda: birinchisi – bu jamiyatni barqarorlik prinsiplari asosida rivojlantirish maqsadlarini belgilab olish va ularga erishishni ta'minlaydigan shart-sharoitlarni aniqlashdir; ikkinchisi – barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi omillarni o'rganish [Lyaskovskaya Ye.A. 2017].

Barqaror taraqqiyot deganda doimiy miqdoriy o'sish kabi tom ma'nodagi barqarorlik emas, balki ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlar (triada) inobatga olingan holda "nizosiz" rivojlanish nazarda tutiladi. "Barqaror" ma'nosini beruvchi "Sustainable" so'zini "doimiy" emas, balki "mustahkam" yoki "bardavom" deb tushunish lozim. Oxirgi vaqtda xoriyda inklyuziv barqaror o'sish konsepsiyasi (inclusive sustainable growth) ancha mashhur bo'ldi. Uning asosiy qoidalari, shu jumladan, iqtisodiyot o'sishi sur'atlari va keng doiradagi ijtimoiy muammolar hal etilishi o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligi, shu jumladan jamiyatda yaratilgan daromadlarni adolatli taqsimlash, bunda aholining nochor qatlamlariga alohida e'tibor qaratish to'g'risidagi xulosa dastlab XX asr 80-yillarida olimlar tomonidan ishlab chiqildi [Pakhomova N.V., Rikhter K.K., Malyshkov G.B. 2014,].

Mintaqa iqtisodini barqaror rivojlantirish masalasiga va uning mezo-iqtisodiy jihatlariga e'tibor qaratgan holda, shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu, eng avvalo bozor iqtisodiyotiga xosdir. Bunda bazaviy shart-sharoitlar va raqobatchilik prinsiplari mezo-iqtisodiy tizimlar uchun ham, mikro-iqtisodiy tizimlar uchun ham asosan bir xil bo'lib qoladi, o'z vazifasini samarali ijro eta olish qobiliyati, bozordagi o'z ulushiga ega bo'lish, uni saqlab qolish va oshirish kabi jihatlar birinchi o'ringa chiqadi.

Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti globallashtirgan iqtisodiyotdir, u yagona, tuzilishiga ko'ra nihoyatda murakkab va nihoyatda yuqori darajadagi raqobatchiligi bilan ajralib turadigan mikro darajadagi tizimni taqozo etadi. Bunday tizimning yuzaga kelishi va parametrik xarakteristikalar bozor raqobatchiligiga ham, uning mezo-iqtisodiy jihatiga ham tobora ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda, raqobatbardoshlik hodisasi to'g'risidagi tasavvurlarning rivojlanishi va diversifikatsiyasiga yordam bermoqda.

Hozirda globallashtirish jarayonining tahlilida ko'plab yondashuvlar mavjud bo'lib, unga ta'rif berishda ham ko'p urinishlar amalga oshirilmoqda. Globallashtirishga qisqacha qilib yuqori darajadagi internatsionallashtirish deb ta'rif berish ham mumkin. Uning asosida tovarlar, xizmatlar, kapital, texnologiyalar va axborot oqimlarining chegaralararo kezishi, kishilarning mamlakatlararo migratsiyasi, bozorlarning hududiy va institutsional integratsiyasi, global muammolarning (moliyaviy,

ekologik, oziq-ovqat, iqtisodiy xavfsizlik va b.) yuzaga kelishi singari jarayon va hodisalarning yig'indisi yotadi.

Umuman, M.Porterning nazariy qarashlarida, "...jahon iqtisodiyoti sharoitida raqobatdagi barqaror ustunliklar ko'p hollarda va ko'proq darajada mahalliy ko'rinishga ega bo'lib, yuqori darajada ixtisoslashgan kasbiy malaka va bilimlar, institutlar, raqiblar, o'zaro bog'langan iqtisodiy faoliyat turlari, shuningdek, muayyan mamlakat yoki mintaqadagi tajribali iste'molchilarning bir yerda to'planishidan yuzaga keladi. Geografik, madaniy va tashkiliy jihatdan yaqinlik axborotdan maxsus foydalanish imkoniyati, alohida munosabatlar, axborotga to'liq ega bo'lish, samarali rag'batlantiruvchi omillarning yuzaga kelishi, ko'plab afzalliklarni ta'minlab beradi Geografik holat, avvalgi o'n yilliklardagidan boshqacharoq ma'noda bo'lsa-da, XXI asr chegarasida ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda"[Поптrep M. 2005].

A.Nizomovning fikricha, "...iqtisodiyotni mintaqaviy boshqarishning asosini mintaqaviy takror ishlab chiqarish jarayoni tashkil etadiki, u, bir tomondan, ijtimoiy takror ishlab chiqarishning tarmoq tizimlari sifatida belgilansa, boshqa tomondan, yakka-yakka takror ishlab chiqarish jarayonlarining korxona darajasidagi integratsiyasi sifatida belgilanadi, bu esa, o'z navbatida, mintaqqa iqtisodiyotining kompleks rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni belgilab beradi"[Nizamov A.A. 2021].

J.Valterning fikriga ko'ra, iqtisodiyotni barqaror rivojlanishiga tavsif berganda, sektoral "...tuzilma (xizmat-

larning ahamiyatini sanoatga qaraganda ko'tarish), innovatsiyalar, hududning qaror qabul qilishda ishtiroki, yuqori texnologik ishlab chiqarish va yuqori malakali ishchi kuchining konsentratsiyasi (ishchi kuchining yashash va faoliyat ko'rsatish muhiti va xizmatlarga nisbatan o'ziga xos talab bo'lgan holda), aholi daromadlari va bandlik darajasi va boshqalar kabi parametrlar bilan ish ko'rish lozim bo'ladi"[Krugman P. 1991].

P. Kresl, B. Singx raqobatbardoshlikning sanoat va chakana savdoda yalpi qo'shimcha qiymat hamda biznes-xizmatlarning yalpi qiymati kabi jihatlariga e'tibor qaratadilar[Kresl P.K., Singh B. 1999]. I.Begg o'zining ilmiy izlanishlarini aholining yashash darajasi indikatorlari bilan to'ldirilgan ishlab chiqarish unumdorligi va bandlikka qaratadi[Begg I., van der, Braun E. 1999.].

"Barqaror rivojlanish" tushunchasining megodarajaga nisbatan qo'llab sharhlaydigan bo'lsak, u iqtisodiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida turlicha talqin qilinayotgan "hududiy raqobat-chilik" tushunchasiga to'la mos keladi. Ba'zi bir hollarda "...mintaqalar raqobatbardoshligi odatda mamlakat barqaror rivojlanishi bilan birga qaraladi va ishsizlikni imkon darajasida pasaytirish hisoblanadi.[27]

Hududlar quyidagi barqaror ikkita asosiy o'zaro bog'liq jihatni aniqlab olish mumkin:

- tarmoq (iqtisodiy faoliyatning alohida sohalarida kechadigan raqobat);
- integral (mezoiqtisodiy shart-sharoitlarning, ya'ni eng samarali ijtimoiy takror ishlab chiqarishni


joylashtirish va tashkil etish nuqtai nazaridan eng maqbul muhitning o'ziga xos raqobati, bu raqobat investitsiyalar, yuqori texnologiyalar, "inson kapitali" va boshqalarda yaqqol namoyon bo'ladilar).

Barqaror rivojlanishning ilmiy-nazariy asoslari hanzugacha umum-e'tirof etilgan tarzda yoritib berilmagan. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib fikrimizcha, barqaror rivojlanish, makro, mezo va mikro darajada dinamik rivojlanish maqsadida jamiyatning xususiyat, mohiyat va tarkibiy qarashlar tizimi bo'lib, u global, mintaqaviy va milliy miqyosdagi jamiyatning iqtisodiy ta'minlangan, ijtimoiy muhofazalangan, ekologik xavfsiz va barqaror birlashgan hayot tarzidir.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotda olingan ilmiy natijalar orqali hududiy taraqqiyotning umumiy darajasi, hudud iqtisodiyoti asosiy tarmoqlarining holati, hududning moliyaviy holati, investision faollik, aholi daromadlari darajasi, bandlik va mehnat bozori, ijtimoiy soha holati, ekologik vaziyat hududiy diagnostika ko'rsatkichlari va shular asosida hududlar reytingini hamda rivojlanish indeksini aniqlash,

metodologiyasini takomillashtirish imkonini beradi. Murakkab ekologik vaziyatli hududlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishining xorijiy tajribasi va mintaqa rivojlanish strategiyasini shakllantirish asosida hududlar iqtisodiy barqarorligini ta'minlash vositalarini chuqur tadqiq etishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, muallifning fikricha, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ekologik jihatlarini aniqlashning vaziyatli tahlil usulidan foydalanish mumkin.

M.Porterning ilmiy izlanishlari natijasi shuni ko'rsatadiki bunda, firmalar uchun raqobatda ustunlikni yaratishda mintaqaning roli muhim bo'libgina qolmay, balki u, "mintaqaviy romb" hosil qiladigan to'rtta o'zaro bog'langan yo'nalishlar (determinantlar) bo'yicha tadqiq etilishi lozim. Bular: omillar parametrlari (tabiiy resurslar, malakali kadrlar, kapital, infratuzilma va b.); talab shartlari; turdosh sohalar (firmani zarur resurslar, butlovchilar, axborot hamda bank, sug'urta va boshqa xizmatlar bilan ta'minlaydi); firmalar strategiyalari, ularning tuzilishi va raqobatchiligidir (1-rasm).



**1-rasm. Mintaqa ekologik-iqtisodiy raqobatbardoshligi
ustunliklarining rombik modeli [28]**

Mintaqaning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishi shu mintaqada joylashgan firmalarning raqobatbardoshligiga bog'liq ekan, uning ta'minlanishi zarur bo'lgan shart-sharoitlarning taqdim etilishiga, ushbu hududda faoliyat yuritayotgan mikro-iqtisodiy subyektlar raqobatbardoshligining qo'llab-quvvatlanishiga bog'liq.

Biroq ushbu korxonalarni mintaqaga jalb qilish va keyinchalik ularni

hududda faoliyat ko'rsatishi uchun firmalarga ularning raqobatbardoshlik muhitini yaratib berish zarur.

Iqtisodiy va ekologik jihatlarni birlashtirish rivojlanish tashabbuslari nafaqat iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishni, balki mintaqaning uzoq muddatli farovonligi bog'liq bo'lgan atrof-muhit va tabiiy resurslarni muhofaza qilishni ham ta'minlaydi.

Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ekologik jihatlarini aniqlashning vaziyatli tahlil usuli¹

<i>I. Sabab va oqibat aloqalari tahlili</i>				
№	Muhim muammolar	Muammolar paydo bo'lish sababi	Muammo oqibatlari	Boshqa tarmoqlar bilan aloqasi
1.1	2030-yilgacha yalpi ichki mahsulotni aholi jon boshiga ikki barovar o'sishi	Demografik jarayonlar, resurslarni chegaralanganligi, dunyo bozoridagi nobarqarorlik va b.	Aholi turmush darajasini va raqobatbardoshlikni pasayishi, ishsizlik va b.	Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, modernizatsiya, makroiqtisodiy siyosat va b.
1.2	Ekologiyani salbiy ta'sirini kamaytirish	Suv va yer resurslarini miqdori va sifatini pasayishi, atrof muhitni ifloslanishi va b.	Suv va yer resurslarini sho'rlanish darajasini oshishi, atmosferani ifloslanishi va b.	Sanoat va qishloq xo'jaligi, ijtimoiy soha, tabiiy resurslardan foydalanish va b.
<i>II. Holatni baholovchi indikatorlar</i>				
2.1	Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot	Barqaror rivojlanish mezoni	Hududlar bo'yicha tabaqalanishuv	Hududlar iqtisodiyotidagi real sektor tarmoqlari
2.2	Aholi jon boshiga ekologik xarajatlar	Atrof muhitni ximoya qilish mezoni	Hududlar bo'yicha ekologik holatni baholash	Hududlar iqtisodiyti
2.3	Atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar	Atmosferani ifloslanish darajasi	Hududlar bo'yicha atmosferani ifloslanish darajasini baholash	Hududlarning ijtimoiy sohalari
<i>III. Muammoni hal qilishga yo'naltirilgan dasturlar</i>				
3.1	O'zbekiston Respublikasini barqaror rivojlanish milliy maqsadlari va vazifalari	BMT barqaror rivojlanish milliy dasturini tizimli ravishda shakllantirish	Hududlarda ekologik barqaror rivojlanishning maqsadli yo'nalishlarini belgilash	Hududlarning tabiiy resurslari, mehnat resurslari, atrof muhit, chiqindilar va b.
3.2	2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish strategiyasi	Rivojlanish strategiyasini mexanizmlarini aniqlash	Diversifikatsiyalash, yuqori texnologiyalarni joriy qilish, inson kapitalini o'sishi va b.	Hududlarning innovatsion-ta'lim tizimi, yetakchi tarmoqlar, raqobat ustunliklari va b.

AKT
11.06.2024

Ekologik jihatga e'tibor bermaslik resurslarning kamayishi, ifloslanishi va ekotizimlarning degradatsiyasi kabi salbiy oqibatlarga olib kelmoqda, bu esa mintaqalarning iqtisodiy barqarorligi va aholi farovonligiga putur yetkazishga olib kelmoqda. Shu bilan birga, ekologik jihatlarini hisobga olish mintaqalarga iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta'sirini tushunishga va salbiy ta'sirlarni yumshatish bo'yicha

strategiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Atrof-muhit masalalarini rivojlanish rejalariga integratsiyalashgan holda, hududlar barqaror amaliyotlarni amalga oshirishi, toza texnologiyalarni qabul qilishi, energiya samaradorligini oshirishi, chiqindilar va ifloslanishni kamaytirishi mumkin. Bu tabiiy resurslarni himoya qilish, biologik xilmaxillikni saqlash va mintaqaning iqlim

o'zgarishiga qo'shgan hissasini kamaytirishga yordam beradi.

Quyidagi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ekologik jihatlarini aniqlashning vaziyatli tahlil usulidan foydalanish mumkin (1-jadval).

Xulosa. Mintaqaning iqtisodiy-ekologik rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda uning tarkibidagi asosiy parametrlarning tizimli yondashuv asosida yalpi hududiy mahsulot va atrof-muhitni himoya qilish xarajatlarining aholi jon boshiga tabaqalanish indeksleri bo'yicha "yuqori" [1,000-2,562], "o'rta" [0,660-0,922] va "past" [0,504-0,556] darajalariga muvofiqligini ta'minlash imkonini beradi. Bu indekslar tahliliy ishlanmalar va ekspert xulosalariga ko'ra, mintaqalarning rivojlanishida ekologik omillarni hisobga olgan holda strategik maqsad va vazifalari belgilash, ular mamlakat hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uzoq mudдатli ustuvor yo'nalishlari bilan bevosita bog'liqdir;

tabiiy muhitning holatiga alohida mintaqalarning ixtisoslashuvi va respublikaning bir qator o'ziga xos xususiyatlari sezilarli darajada ta'sir qiladi, ularga quyidagilar kiradi: nisbatan kichik, ammo jadal rivojlangan hududda ishlab chiqarish va aholining yuqori konsentrasiyasi (Farg'ona vodiysi); suv resurslarining cheklanganligi va sifatsizligi (Orolbo'yi mintaqasi); hududning katta qismini atmosferani

ifloslanish salohiyati baland bo'lgan zonalarda (Toshkent, Navoiy va boshqa viloyatlar) joylashishi;

tahlillar ko'rsatishicha, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha jami hosil bo'lgan ifloslantiruvchi moddalardan ushlab qolingani va zararsizlantirilganligi bo'yicha Jizzax, Sirdaryo, Toshkent, Surxondaryo viloyatlarida chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Orolbo'yi mintaqasida ekologik barqarorlikni ta'minlash, raqamlashtirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga innovasion yondashuvlarni amalga oshirish zarurligidan dalolat beradi;

"Yashil" texnologiyalar energiya va resursni tejashga, atmosferaga uglerod chiqarishni kamaytirishga, sof energiyadan foydalanuvchi transportga, energiyani muqobil manbalariga, organik qishloq xo'jaligiga, ekodevelopmentga (atrof-muhitga kam ta'sir ko'rsatgan holda qurilishga), ilg'or logistikaga asoslanadi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotga tabiatga ziyon yetkazmay rivojlanish va aholining ekologik farovonligini saqlash imkonini beradi, tabiiy kapitalni saqlash va oshirish hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, zaharli moddalar va uglerod chiqarilishini kamaytirdai, bioxilmaxillikni kengaytiradi, shuningdek, aholi daromadlari va bandligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Тюнен И.Г. Изолированное государство. – Москва: Экономическая жизнь.
2. Вебер, А., Хоутеллинг, Г., Кристаллер, В., Куклинский, А., & Робсон, П. Теоретико-методологічні основи регіоналістики., Izard U. *Methods of Regional Analysis: Introduction to the Science of Regions*. – Moscow: Progress. – 1966.,
3. Porter М. Международная конкуренция. – Москва: Международные отношения, 2005. – 859 с., Krugman P. *Geography and Trade*, Cambridge MIT Press, 1991,
4. Levin S. A., Clark W. *Toward a science of sustainability* //Center for International Development Working Papers. – 2010., Mendelsohn R. *The economics of adaptation to climate change in developing countries* //Climate Change Economics. – 2012. – Т. 3. – №. 02. – S. 1250006.
5. Nordhaus W. *Evolution of modeling of the economics of global warming: changes in the DICE model, 1992–2017* //Climatic change. – 2018. – Т. 148. – №. 4. – S. 623-640.,
6. Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. – М.: Высшая школа экономики. 2001, — с.441
7. Кустанов В., Копылов Н. Региональная экономика России. М.: Финансы и статистика. 2002, с.584.
8. Nizamov A.A. *Mintaqa iqtisodiyotini tarkibiy jihatdan takomillashtirish yo'llari (Buxoro viloyati misolida): I.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan tadqiqot avtoreferati*. – T.: O'MU, 2021. — 58 b.
9. Barqaror rivojlanish va uning tizimli indikatorlari. Monografiya / A. N. Nigmatov va boshq. – Toshkent.
10. Daly H. E. *Ecological economics and sustainable development*. – Edward Elgar Publishing, 2007.
11. Costanza R. *Ecological economics in 2049: Getting beyond the argument culture to the world we all want* //Ecological Economics. – 2020. – Т. 168. – S. 106484.
12. Sachs J. D. *Sustainable development goals for a new era* //Horizons: Journal of International Relations and Sustainable Development. – 2014. – №. 1. – S. 106-119.
13. Kvint. *Strategiyalash nazariyasi va amaliyoti*. – T.: Tasvir, 2018. -45 b.
14. Кесян В., Чернышев А. Государственная поддержка социально-экономического развития депрессивных регионов в зарубежных странах. – М.: Региональная экономика и теория, 2006, №1. – С.28.
15. Бобылев С.Н., Зубаревич Н.В. *Индикаторы устойчивого развития*. Москва, Макс Пресс, 2008,,
16. Мерзлов А, Филиппова А. Особенности устойчивого развития сельских территорий в Европейских странах. – М.: Международный сельскохозяйственный журнал. № 5, 2016, с.14.,
17. Chandler A.D., Jr. *Strategy and Structure*. M.I.T. Press, Cambridge, Mass., 1962.
18. Braczyk H, Cooke P, Heidenreich M. *Regional Innovation Systems*. UGL Press, London, 1998.,
19. Kresl P.K., Singh B. *Competitiveness and the Urban Economy* // Urban Studiyes. 1999. Vol. 36. № 5-6.
20. Lever W.F. *Competitive Citiyes in Europe* // Urban Studiyes. 1999. Vol. 36.
21. Rajabov N. *Zonal policy concept: prospects for effective investment climate management* // Иқтисодиёт ва таълим. – 2022. – Т. 23. –Махсус сон. – С. 212-219.
22. Rajabov N.R. “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasiga jalb etilgan investitsiyalar samaradorligini baholash//“O'zbekiston Respublikasi Harakatlar strategiyasi: makroiqtisodiy barqarorlik, investitsion faollik va innovatsion rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. – T.: TDIU, 2020-yil 11-12-dekabr. 437-443 betlar.
23. Sharm al-Shayxda BMT Iqlim o'zgarishi konvensiyasi ishtirokchi-mamlakatlari konferensiyasining 27-sessiyasi materiallari. - <https://www.un.org/en/climatechange/cop27>

24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ 4477-son "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori. – www.lex.uz
25. <https://president.uz/oz/lists/view/5774>
26. Глобальный зеленый новый курс. Доклад, ЮНЕП, 2009
27. Entrepreneurship and Local Economic Development Policy. OECD Publication Service, Paris, 2003
28. Ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Ingliz tili muharriri: Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi
Musahhih: Vahobova Marfua Mirkamalovna
Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li

2024. 1-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda **"Management and Economics Scientific Research Journal"** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El. pochta: journals@timeedu.uz

Tel.: +998 95 651 90 00

"Management and Economics Scientific Research Journal" jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami: C-5669639
PNFL: 308906510

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani
Shota Rustaveli ko'chasi, 114